



THE CONCEPT OF RELIGIOUS RADICALISM AND THE STAGES OF ITS HISTORICAL DEVELOPMENT

Muhammadsodik Hakimov

International Islamic Academy of Uzbekistan

1st-year Master's student in Islamic Studies

Email: Hakimovmuhammadsodiq013@gmail.com

Tashkent, Uzbekistan

Durbek Rahimjonov

International Islamic Academy of Uzbekistan

Associate Professor of the Department of "Islamic Studies and Study of Islamic Civilization (ICESCO)", Candidate of Historical Sciences

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Religious radicalism, extremism, fundamentalism, historical formation, ideological threat, religious tolerance, interethnic harmony, socio-political factors.

Received: 05.05.26

Accepted: 06.05.26

Published: 07.05.26

Abstract: This article provides a scientific and theoretical analysis of the concept of religious radicalism, its essence, and the stages of its historical formation. The study uncovers the socio-political and psychological factors that contribute to religious radicalization, emphasizing how the distortion of religious ideas negatively impacts social stability, tolerance, and interethnic harmony. Furthermore, it examines the historical roots of radical views, from early theological disputes to modern manifestations, and highlights religious enlightenment as a key factor in prevention.

DINIY RADIKALIZM TUSHUNCHASI VA UNING TARIXIY SHAKLLANISH BOSQICHLARI

Muhammadsodiq Hakimov

O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi

Islomshunoslik yo'nalishi 1-bosqich magistranti

Hakimovmuhammadsodiq013@gmail.com

Toshkent, O'zbekiston

Durbek Rahimjonov

O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi

"Islomshunoslik va islom sivilizatsiyasini

o'rganish ICESCO" kafedrasi dotsenti, tarix fanlari nomzodi

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Diniy radikalizm, ekstremizm, fundamentalizm, tarixiy shakllanish, mafkuraviy tahdid, diniy bag'rikenglik, millatlararo totuvlik, ijtimoiy-siyosiy omillar.

Annotatsiya: Mazkur maqolada diniy radikalizm tushunchasi, uning mohiyati hamda tarixiy shakllanish bosqichlari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda diniy radikallashuvning yuzaga kelishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va psixologik omillar ochib berilib, diniy g'oyalarning buzib talqin qilinishi jamiyat barqarorligi va bag'rikenglikka salbiy ta'sir ko'rsatishi asoslab berilgan. Shuningdek, tarixiy jarayonlar davomida radikal qarashlarning shakllanish sabablari yoritilib, ularning oldini olishda diniy ma'rifat muhim omil ekanligi ta'kidlangan.

ПОНЯТИЕ РЕЛИГИОЗНОГО РАДИКАЛИЗМА И ЭТАПЫ ЕГО ИСТОРИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ

Мухаммадсодик Хакимов

Международная исламская академия Узбекистана

Магистрант 1 курса по направлению исламоведения

Эл. почта: Hakimovmuhammadsodiq013@gmail.com

Ташкент, Узбекистан

Дурбек Рахимжонов

Международная исламская академия Узбекистана

Доцент кафедры «Исламоведение и изучение исламской цивилизации ICESCO», кандидат исторических наук

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Религиозный радикализм, экстремизм, фундаментализм, историческое формирование, идеологическая угроза, религиозная толерантность, межнациональное согласие, социально-политические факторы.

Аннотация: В данной статье с научно-теоретической точки зрения проанализировано понятие религиозного радикализма, его сущность и исторические этапы формирования. В исследовании раскрываются социально-политические и психологические факторы, влияющие на возникновение религиозной радикализации, а также обосновывается негативное воздействие искажённой

интерпретации религиозных идей на общественную стабильность и межэтническое согласие.

Кроме того, освещаются причины формирования радикальных взглядов в ходе исторических процессов и подчеркивается роль просвещения в их предупреждении.

Kirish. Bugungi globallashuv va jamiyatning shiddat bilan modernizatsiyalashuvi sharoitida diniy radikalizm, ekstremizm va terrorizm kabi mafkuraviy tahdidlar nafaqat alohida davlatlar, balki butun jahon hamjamiyati xavfsizligiga jiddiy xavf solmoqda. Ayniqsa, yoshlar qatlamining zamonaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar ta'sirida turli radikal g'oyalalar domiga tushib qolayotgani ushbu muammoning barvaqt profilaktikasini tashkil etishni davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylantirdi[1:682]. Radikallashuv jarayoni ko'p hollarda jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy ziddiyatlar, kognitiv inqirozlar va "hayot dunyosiga begonalashuv" (alienation) kabi omillar natijasida yuzaga keladi.

"Radikalizm" atamasi etimologik jihatdan lotincha "radix" so'zidan olingan bo'lib, "ildiz", "asos", "manba" kabi ma'nolarni anglatadi[2:43]. Siyosiy va ijtimoiy ma'noda radikalizm mavjud ijtimoiy-siyosiy tuzum yoki institutlarni tubdan, ya'ni "ildizi bilan" o'zgartirishga qaratilgan qat'iy talab va harakatlarni ifodalaydi. Diniy mazmunda esa bu atama muayyan diniy e'tiqod tamoyillarini mutlaqlashtirish va "oltin davr" (Saodat asri) sari qaytish da'vosi bilan mavjud tartibni inkor etishda namoyon bo'ladi[3:7].

Zamonaviy akademik tadqiqotlarda radikalizm tushunchasi tahlil qilinayotganda, uning ikki muhim jihatiga e'tibor qaratiladi: fikriy radikalizm va xulq-atvorga oid radikalizm. Kognitiv radikalizm insonning ongi va e'tiqodida mavjud tizimga qarshi keskin qarashlarning shakllanishini ifodalasa, xulq-atvorga oid radikalizm ushbu qarashlarning jismoniy zo'ravonlik yoki terrorizm harakatlariga aylanishini anglatadi. Radikalizm va radikallashuv tushunchalarini fundamentalizm va ekstremizmdan farqlash ushbu fenomenning tarixiy shakllanish bosqichlarini to'g'ri tushunish imkonini beradi.

Markaziy Osiyo, xususan, O'zbekiston sharoitida diniy radikalizmning shakllanishi o'ziga xos murakkab tarixiy sharoitda kechdi. Sovet ittifoqi davridagi uzoq yillik ateistik bosim va dindan majburiy uzoqlashtirish siyosati aholining diniy savodxonligi pasayishiga va mustaqillikning ilk yillarida mafkuraviy bo'shliq yuzaga kelishiga sabab bo'ldi[4:9]. Ushbu bo'shliqdan foydalangan tashqi radikal oqimlar mintaqaga "vahhobiylik" "hizbut-tahrir" kabi yot g'oyalarni eksport

qilishga urindi. Ushbu maqolaning maqsadi diniy radikalizm tushunchasining mohiyatini ochib berish, uning tarixiy shakllanish bosqichlarini tahlil qilish hamda radikallashtirishning oldini olishda diniy ma'rifatning o'rnini asoslab berishdan iborat. Tadqiqot jarayonida tarixiy-tahliliy, qiyosiy va sotsiologik metodlardan foydalanilgan bo'lib, bu muammoning ildizlarini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Asosiy qism. Diniy radikalizm fenomenini o'rganishda akademik doiralar to'rt xil asosiy yondashuvni ajratib ko'rsatadilar: tarixiy, diniy (teologik), sekulyarizatsiya va ommaviy yondashuvlar. Tarixiy yondashuv radikalizmni jamiyatdagi yangiliklarga nisbatan doimiy ravishda namoyon bo'ladigan "taassub" sifatida baholasa, teologik yondashuv diniy matnlarni faqatgina lafziy tushunish va ularni "tanlangan" talqinlar asosida jamiyatga tatbiq etishga intilishni tahlil qiladi. Bizning tahlillarimizga ko'ra, diniy radikalizm fundamentalizmdan o'zining "oltin davr"ga qaytish borasidagi siyosiy faolligi bilan ajralib turadi. Bunda radikallashtirish jarayoni shaxsning o'zi yashayotgan ijtimoiy-siyosiy tartibdan butkul uzilishi va muqobil "ideal" tizim qurishga intilishi orqali kechadi.

Radikallashtirish shunchaki g'oyaviy o'zgarish emas, balki bir necha bosqichli "zina"(staircase) modelidan iboratdir. Ushbu modelning birinchi bosqichida inson o'z ijtimoiy sharoitidan norozilik va adolatsizlik hissini tuyadi, so'ngra ushbu norozilikni muayyan mafkuraviy yo'nalishga (masalan, radikal diniy oqimga) bog'laydi[5:19-44]. Fenomenologik nuqtai nazardan, radikallashtirish "hayot dunyosiga begonalashuv"(alienation) natijasidir. Inson o'zi yashayotgan jamiyatning qadriyatlarini "begona" deb qabul qila boshlagach, unda fikriy radikalizm shakllanadi. Bu jarayon ko'pincha "biz va ular" (kofir va mo'min) kabi keskin fikrni yuzaga keltiradi va jamiyatdagi umumqabul qilingan me'yorlarning buzilishiga olib keladi.

Tarixiy jarayonlar shuni ko'rsatadiki, islom tarixida diniy radikalizmning ilk namunalari xavorijlar harakati bilan bog'liq. Ular "Hokimiyat faqat Allohnikidir" tamoyilini mutlaqlashtirib, jamiyatni kofir va musulmonlarga ajratish amaliyotini boshlab berdilar. Bu tarixiy jarayon zamonaviy radikal g'oyalar uchun "andoza" vazifasini o'tamoqda. Ayniqsa, diniy matnlarni tarixiy kontekstdan uzib, faqatgina urush va kurash bilan bog'liq oyatlarni tanlab olish (selektivlik) zamonaviy radikal g'oyalarning markaziy strategiyasidi[6:79-101]. Shaxsiy kuzatuvlarimizga ko'ra, bunday "yopiq" e'tiqod tizimlari har qanday tanqidiy fikrlashni inkor etadi va diniy fanatizmni radikalizmning mafkuraviy poydevoriga aylantiradi.

Mintaqamizda diniy radikalizmning shakllanishi uchta muhim bosqichdan o'tgan. Birinchi bosqich – Rossiya imperiyasi davridagi mustamlakachilikka qarshi qurolli kurashlar bo'lib, ular ko'p hollarda so'fiy tariqatlar va eshonlar yetakchiligida kechgan. Ikkinchi bosqich – Sovet

davridagi diniy bo'shliq bo'lib, u "rasmiy" va "norasmiy" islom o'rtasida chuqur uzilishni yuzaga keltirdi. Uchinchi bosqich – 1979-yildagi Afg'on urushidan so'ng mintaqaga "vahhobiylik" kabi radikal qarashlarning kirib kelishi bilan bog'liq. Mustaqillikning ilk yillarida ushbu mafkuraviy bo'shliqdan foydalangan "O'zbekiston islom harakati" va "Hizbut-tahrir" kabi tashkilotlar o'zlarining – "Xalifalik qurish" g'oyalari bilan namoyon bo'ldilar[7:9-22]. Zamonaviy sharoitda esa radikallasuv onlayn platformalarga ko'chib, virtual "jamoat"lar shaklida o'z xavfini saqlab qolmoqda.

Xulosa. Xulosa o'rnida ta'kidlash lozimki, diniy radikalizm fenomenini tadqiq etish nafaqat muayyan e'tiqodiy keskinliklarni, balki jamiyatning tarixiy, ijtimoiy-siyosiy va mafkuraviy manzarasini fundamental darajada anglash imkonini beradi. Mazkur maqolada diniy radikalizm tushunchasining mazmun-mohiyati va uning shakllanish bosqichlari tizimli tahlil qilinib, ushbu hodisani naqadar chuqur ildizlarga ega ekanligi yoritib berildi. Maqolada olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, radikalizm islom tarixidagi ilk ixtilofli oqim – xavorijlar faoliyatidan boshlab, bugungi globallasuv davridagi murakkab siyosiy jarayonlargacha bo'lgan uzoq evolyutsion yo'lni bosib o'tgan.

O'zbekiston sharoitida diniy radikalizmning shakllanishi o'ziga xos tarixiy kontekstga ega bo'lib, u sovet davridagi diniy qadriyatlarning sun'iy ravishda cheklanishi natijasida yuzaga kelgan mafkuraviy bo'shliq hamda mustaqillikning ilk yillarida tashqi tomondan "eksport qilingan" yot g'oyalar ta'sirida shakllangan. Tadqiqot natijalari shuni tasdiqlaydiki, radikallasuv shunchaki diniy bilimlar yetishmasligi emas, balki shaxsning o'zi yashayotgan jamiyatdan begonalashuvi va mavjud tizimni inkor etishi natijasida yuzaga keladigan kognitiv inqirozdir. Ushbu jarayonda axborot texnologiyalari va ijtimoiy tarmoqlar radikal g'oyalarning "katalizatori" bo'lib xizmat qilayotgani yoshlar qatlamini ushbu xavfga nisbatan yanada zaif qilib qo'yimoqda.

Umuman olganda, diniy radikalizm hodisasi shunchaki tarixiy meros yoki tasodifiy tushuncha emas, balki jamiyatning e'tiqodiy barqarorligini buzishga qaratilgan murakkab tizimli tahdiddir. Mazkur maqolada ilgari surilgan "Jaholatga qarshi ma'rifat" tamoyili bugungi kunda ham ushbu buzg'unchi g'oyalarga qarshi kurashishda eng samarali va fundamental vosita bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Исаева М.Р. Глобаллашув шароитида радикаллашувнинг пайдо бўлиш омиллари ва унинг оқибатлари // Экономика и социум. – 2024. – №10(125)-2. – Б. 682.

2. Kurum M., Avcı E. Radikalizm ve Aşırıcılıktan Terörizme: Siyasal Şiddetin Araçsallaştırılması // Güvenlik Stratejileri. – 2018. – Yıl: 14. – Sayı: 28. – S. 43.
3. Aydınalp H. Dinî Radikalizm: Anlamı, Sınırları ve Çözümü Üzerine // Diyanet Dergi. – 2021. – S. 7.
4. Çaman E., Dağcı K. Özbekistan’da İslam, Siyasi Sistem ve Radikalizm // Yalova Sosyal Bilimler Dergisi. – 2014. – Yıl: 5. – Sayı: 8. – S. 9.
5. Pektaş U., Özen Ç. Fenomenolojinin Siyasi Radikalizm Açıklaması: Yaşam Dünyasına Yabancılaşma // Ankara Üniversitesi SBF Dergisi. – 2022. – Cilt 77. – No. 1. – S. 19-44.
6. Kavukcu N. Radikal Dini Hareketlerin Orta Asya’daki Yansıması: Özbekistan Örneği // DSJOURNAL. – 2021. – 2 (1). – S. 79-101.
7. Çaman E., Dağcı K. Özbekistan’da İslam, Siyasi Sistem ve Radikalizm // Yalova Sosyal Bilimler Dergisi. – 2014. – Yıl: 5. – Sayı: 8. – S. 9-22.